

## **PSIXOLOGIK XIZMATNI TASHKIL ETISHDA SHAXSLARARO MUNOSABATLARDA NAMOYON BO'LADIGAN IJTIMOIY XULQGA DOIR PSIXOTIPLAR TALQINI**

**Soliyev Farhodjon Sodiqovich**

*Farg'onan davlat universiteti*

**Annotasiya:** Ushbu maqolada ijtimoiy munosabatlardagi ekspressiv xulqni vizual baholashda emotsiyal qo'zg'aluvchanlikda ayollar erkaklarga qaraganda ustun ekanligi va intensivlik darajasi bo'yicha kamroq va emotsiyal barqarorlikda past darajada ekanligi tufayli hissiy komponentda gender differentsiya mavjudligi tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** tipologiya, psixiatr-psixoterapevt, retseptiv, ekspluatatsiy, introversiya emotsiyal ekspressiyasi, fizionomiya.

Respublikamizda so'nggi yillarda ijtimoiy-iqtisodiy jahhalarda faoliyat yurituvchi xodimlarni zamon talablariga mos texnologiyalar bilan qurollantirish hamda zarruriy huquqiy-me'yoriy asoslari yaratildi. «Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari»ning «Ta'lim va fan sohasini rivojlantirish» bo'limida qayd etilgan «ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rag'battantirish, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyatga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish...»<sup>1</sup> ga doir masalalar yangi rivojlanib kelayotgan sohalarni amaliyatga joriy etishga keng yo'l ochib beradi hamda shaxlararo munosabatlarda ilmiy va innovatsion yutuqlarni o'z ichiga olgan vizual diagnostika usulini amaliyatga joriy etishni dolzarb muammo sifatida qaralishini ko'rsatadi.

Tiplarni aniqlash va klassifikatsiyalash-olamni bilishdag'i qadimiyl umummilmiy metoddir. Psixologiyada ma'lum bir guruhga oid sifatlarning doimiy namoyon bo'lishi o'sha guruhga xos tipik ko'rinish deb aytildi va har qanday insonda ana shu sifat namoyon bo'lsa, uni shu guruhga yoki tipiga mansub deb aytamiz.

Tipologik yondashuv shaxsni bir butunlikda tahlil qilishga imkon beradi, ya'ni, umumlashtirish respondentlarni guruhlarga ajratish asosida amalga oshiriladi. Shaxs tiplarini ochib berishda K.G.Yung, K.Leongard metodikalari juda mashhurdir. Ular asosan amaliyatga yo'naltirilgan metodlar hisoblanadi [112; 46]

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldag'i "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar Strategiyasi to'G'risida"gi PF-4947-son Farmoni. – O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. Toshkent sh., 2017 yil 7 fevral, PF-4947-son <https://lex.uz/docs/3107036>

Tipologiya – bu tez va mazmundor natija beruvchi tejamkor bilish usulidir, ammo insonning o’ziga xos individualligiga kam e’tiborlik tipologiyaning kuchsiz tomoni hisoblanadi. Shuning uchun ham insonda uning tipik tomoni qayd etiladi, lekin muhim tomonlari chetda qolib ketishi ehtimol.

Tipologiyaning asosini ikki ustanovkadan biri tashkil qiladi: ekstraversiya tashqariga yo’nalgan, ekspressivligi yorqin ko’rinishga ega muloqotga kirishuvchan, shaxslararo munosabatlarda ochiq imo-ishoralardan ko’p foydalananigan va introversiya emotsiyaligini ekspressiyasi kam namoyon bo’ladigan, berk tiplarga bo’linadi. Dastlabki ma’lumotlarga ko’ra, ekstraversiya-introversiya tushunchasi inson xarakteri tipologiyasida umumiyligi ustanovka sifatida 1896 yili F.Djordan tomonidan fanga olib kirilgan. Uning “Inson tanasi va genitaliyalari nuqtai nazaridan xarakteri” kitobida bugungi kunda ekstrovert va introvert iborasi bilan yuritilayotgan iboralar haqida so’z boradi.

Psiyatrat-psixoterapevt va amaliyotchi psixolog P.V.Volkov xarakterning kliniko-ekzistentsial tipologiyasini 9 tipga ajratib, ularning turli ijtimoiy vaziyatlarda namoyon qilishi mumkin bo’lgan xulqining asosiy paternlarini ma’lum kodlashtirish asosida yoritib bergan [20].

Ijtimoiy xarakter klassifikatsiyasini E.From yaratgan. E.From ijtimoiy xarakterning besh tipini ikkita guruhga ya’ni, samarali va samarasiz orientatsiyaga bo’ladi. Samarali orientatsiyaga samarali orientatsiyaga ega xarakter tipini, samarasizga esa retseptiv, ekspluatatsiya qilish, tamagirlilik va bozor talabiga oid orientatsiyasiga ega tipologiyalarni kiritadi. Biroq, bu tiplar sof shaklda mavjud emas, balki turli nisbatlarda birlashgan xolda uchraydi.

1. Retseptiv orientatsiya. Bunday turdagi odamlar hayotdagi barcha yaxshi narsalarning manbai o’zlaridan tashqarida ekanligiga aminlar. Ular ochiqchasiga qaram va passivdir, o’zgalar yordamisiz hech narsa qila olmaydilar va hayotdagi asosiy vazifasi sevishdan ko’ra sevilish deb o’ylashadi.

2. Ekspluatatsiya qilish orientatsiyasi. Bu tip vakillari kuch yoki zukkolik bilan zarur bo’lgan hamma narsani olishga intiladi. Ular sevgi, egalik qilishlik, g’oyalar va his-tuyg’ularni boshqalardan olib o’zlashtirishga intiladilar.

3. Tamagirlilik orientatsiyasi. Bunday yo’nalishdagi odamlar tashqi dunyodan yangi narsalarni olishlariga ishonchlari kam. Bunday tiplilarga imkon qadar ko’proq moddiy boylik, kuch va muhabbatga ega bo’lish istagi xosdir va ular harajatlarni tahdid sifatida qabul qiladilar. Bu tip o’tmishni qo’msaydi, hamma yangi narsa uni qo’rqtidi.

4. Bozor talabiga oid orientatsiya. Bu tip shaxsni foydali sotilish yoki almashtirish mumkin bo’lgan tovar sifatida baholaydi. Bunday odamlar har doim chiroyli ko’rinishga intiladi va muvaffaqiyatga erishish imkoniyatlarini oshiradigan har qanday shaxsiy xususiyatni namoyish etishga tayyor bo’ladilar.

5. Samarali orientatsiya. E.Fromm ta'kidlashicha, bu tipdagi xarakter insoniyat taraqqiyotidagi yakuniy maqsad hisoblanadi. Bu tip quyidagi xususiyatlarga ega: mustaqil, halol, vazmin, mehribon, ijodiy va ijtimoiy foydali ishlarni bajaruvchi. Aynan shu yo'nalishda shaxsning samarali mantiqiy fikrlash qobiliyati, muhabbat va mehnat qobiliyati namoyon bo'ladi [104, 373—405].

Shaxsni tavsiflashning eng muhim tomoni - bu o'zga odamga va o'ziga bo'lgan munosabatning baholash hisoblanadi.O'ziga va boshqa shaxsga nisbatan ustun bo'lgan munosabatiga ko'ra, shaxs tuzilmasining bir nechta asosiy darajalar belgilandi. Mana shunday taqsimotga ko'ra B.S.Bratus ijtimoiy xarakterning tipologik modelini yaratadi.

Dastlabki, egosentrik daraja faqat o'z manfaati va obro'-e'tibori uchun ustun bo'lgan istak bilan belgilanadi, boshqa shaxsga bo'lgan munosabati uning ehtiyojlaridan kelib chiqqan xolda, ya'ni unga yordam berishi yoki bermasligi, foydasi yoki foydasizligidan kelib chiqib munosabat bildiradi. Uning shaxsiy baxt va farovonligi o'zgalarining baxtli yoki baxtsiz bo'lishidan qat'iy -nazar, muhim hisoblanadi.

Keyingi daraja - guruhga yo'nalgan - inson o'zini ma'lum bir guruh bilan identifikatsiyalashtiradi va uning boshqa odamlarga bo'lgan munosabati o'sha odamning uning guruhiga kirishi yoki kirmasligi bilan belgilanadi. Agar birontasi uning guruhiga mansub bo'lsa, guruh a'zosini shaxsiy fazilatlariga ko'ra emas, balki guruh kirganligi uchun bilan qadrlanadi. Olam uning uchun "o'zimiznikilar" va "o'zgalar" ga bo'lingan. Uning farovonligi guruhning farovonligi bilan bog'liq.

Shaxsning ijtimoiy yoki gumanistik darajasida shaxs o'zini va boshqa insonlarni qadrlaydi, teng huquqligini tan oladi, erkinliklar va burchlarni tan olishini nazarda tutadi. Bu yerda shaxs quyidagi tamoyilga tayanadi: "Boshqalar senga qanday munosabatda bo'lishini istasang, ularga ham shunday munosabatda bo'l". Ular uchun baxt va farovonlik barcha odamlarga, butun insoniyatga taqsimlanishini bilan belgilanadi.

Ma'naviy yoki esxatologik daraja insonning hayoti yerdagi hayotning tugashi bilan tugamaydigan, balki ma'naviy dunyo bilan bog'liq bo'lgan mavjudot sifatida qarashni namoyish etadi, ya'ni xudo bilan sub'ektiv munosabatlari hal qilinadigan daraja hisoblanadi. Xudo bilan bog'lanish hissi va unga xizmat qilish va u bilan birlashish sifatidagi baxt g'oyasi mavjud. [124].

To'rt darajaning barchasi qandaydir tarzda hammada mavjud va ba'zi paytlarda, hech bo'limganda, vaziyatga qarab, bir daraja g'alaba qozonadi.Biroq, biz ma'lum bir shaxs uchun qandaydir tipik profil, odatiy intilish haqida ham gapirishimiz mumkin. Muayyan jamiyatning madaniyati va turmush tarzi ushbu tipik intilishning shakllanishiga ta'sir qiladi.

A.F.Lazurskiy individuallikning rasmiy va tarkibiy xarakteristikasini yagona tizimga birlashtirishni harakat qiladi. Buni u quyidagicha izohlaydi: “Shaxs tipining ideal tarzdagi klassifikatsiyasi shunday bo'lishi kerakki, unda har bir tipning sub'ektiv o'ziga xosligi bilan chegaralanib qolmasdan balki uning dunyoqarashi va ijtimoiy fizionomiyasiga xos xususiyatlarni o'z ichiga olishi zarur, chunki ular shaxsning xarakteri bilan bog'liqdir” [45, 179]. U o'z nazariyasining asosi sifatida individning muhitga faol moslashuvi prinsipini tanlaydi, klassifikatsiya uchun psixik daraja va psixik mohiyatni asos qilib oladi. Qanchalik psixik daraja yuqori bo'lsa, faol va produktiv muhitga moslashish muvaffaqiyatli kechadi.

A.F.Lazurskiy konsepsiyasiga binoan xarakter tipologiyasi quyidagi ko'rinishga ega:

1.Yetarli darajada moslasha olmaslik (muhitga passiv moslashuv).

2.Psixofiziologik funksiyalarning ustunlik darajasiga ko'ra (endopsixik kategoriya): 1. Sermulohazalik; 2. Affektiv (harakatchan (sangviniklar), hissiyotli, o'ychan); 3. Faol (impulsiv, bo'ysunuvchan-harakatli, qaysar).

3. Moslashuvchan (muhit va insonning o'zaro ta'siri).

Endo va ekzo o'ziga xoslikni umumlashtirgan ijtimoiy psixologik kompleks bo'yicha taqsimlanish (amaliyotchi bo'lman, nazariy-idealislardar): 1. Olimlar; 2. Rassomlar; 3. Dindorlar; 4. Amaliyotchi realistlar; 5.Insonparvarlar (alturistlar); 6. Jamoatchilar; 7. Hukmini o'tkazadiganlar; 8. Xo'jalik ishlariga moyillar.

3.Moslashtiruvchi (o'z ehtiyoji va yo'nalishiga muhitni moslashtiruvchilar).

Ekzopsisika bo'yicha taqsimlash (ideallar): 1. Alturizm; 2. Bilim (induktiv, deduktiv); 3. Maftunkorlik; 4. Din; 5. Jamiyat, davlat.

Agar xarakter ko'rinishi o'zgarsa va bunda biron bir sifat o'ta namoyon bo'lsa, kishi ma'lum bir voqelikka o'ta sezgir bo'lib qoladi. Bunday holatda shaxsning xarakterida aktsantuatsiya mavjudligi haqida so'z boradi. Aktsantuatsiya – shunday me'yorlar variantiki, unda ma'lum bir xarakter sifatlari o'ta kuchli namoyon bo'lib, uning oqibatida ma'lum bir psixogen ta'sirlarga beriluvchanlik ko'riniq qoladi, boshqa ta'sirlarga esa turg'un, barqaror munosabatda bo'ladi. Odatda aniq aktsantuatsiyalar-me'yorning so'nggi variantlari hisoblanib shaxs dezadaptatsiyasiga olib kelishi kuzatiladi.

Agar xarakter ko'rinishi o'zgarsa va bunda biron bir sifat o'ta namoyon bo'lsa, kishi ma'lum bir voqelikka o'ta sezgir bo'lib qoladi. Bunday holatda shaxsning xarakterida aktsantuatsiya mavjudligi haqida so'z boradi. Aktsantuatsiya – shunday me'yorlar variantiki, unda ma'lum bir xarakter sifatlari o'ta kuchli namoyon bo'lib, uning oqibatida ma'lum bir psixogen ta'sirlarga beriluvchanlik ko'riniq qoladi, boshqa ta'sirlarga esa turg'un, barqaror munosabatda bo'ladi. Odatda aniq

aktsentuatsiyalar – me'yorning so'nggi variantlari hisoblanib shaxs dezadaptatsiyasiga olib kelishi kuzatiladi.

### Adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob halqimiz bilan birga quramiz. – T.: O'zbekiston, 2017. – 488 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarori. O'zbekiston Respublikasini 2030 yilga qadar ijtimoiy-iqtisodiy kompleks rivojlantirish kontseptsiyasi. regulation.gov.uz
3. Анисимова Н.Н. Особенности визуальной психоdiagностики личности террориста. Обнаружение криминального искажения информации: Учебно-методическое пособие. – Д., 2007. – 7 с.
4. Soliyev F. Iqtisodiy sohadagi munosabatlarda psixologik aykido metodidan foydalanish. "Актуальные начно-гуманитарные проблемы юго-западного региона Кыргызстана" О'sh, 2005. — 81-82 b.
5. Soliyev F. Ta'limda nutqning analog vositalaridan foydalanishning psixologik asoslari. Xorijiy tillarni o'qitishda zamonaviy yondashuvlar. Halqaro ilmiy-amaliy anjuman. 2018 yil 11 aprel 1-kitob, 146-148 b.

